

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Patogen variantlar tashuvchanligini aniqlash uchun populyatsiyaga yo‘naltirilgan genetik platformani ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - o‘zbek populyatsiyasida uchraydigan genetik variantlar chastotalari bo‘yicha ma’lumotlar olinib, tizimlashtiriladi; - xalqaro bazalar (ClinVar, gnomAD, OMIM, HGMD) bilan solishtirish asosida mintaqada eng ko‘p uchraydigan klinik ahamiyatga ega patogen va ehtimol patogen variantlar aniqlanadi; - klinik ahamiyati isbotlangan va populyatsiyaga yo‘naltirilgan DNK-chipga kiritishga mos bo‘lgan SNP, indel va struktura variantlari saralanadi; - kasallik guruhlari bo‘yicha optimal subpanellar shakllantiriladi: monogen, mediko-genetik sindromlar, kardiometabolik, onkologik, farmakogenetik va boshqalar; - o‘zbek populyatsiyasi uchun allel va gaptotip chastotalarining referens katalogi yaratiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Sog‘liqni saqlash vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Sog‘liqni saqlash vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.